
ELEKTR, ISSIQLIK, GAZ YOKI VODOPROVODDAN TIJORAT MAQSADLARIDA NOQONUNYI FOYDALANISH O'G'RILIK DEB BELGILANDI



Elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovoddan tijorat maqsadlarida noqonuniy foydalanish o'g'rilik deb belgilandi

3.03.2023 sanadagi 822-sonli O'zbekiston respublikasi qonuni bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks hamda Jinoyat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Jumladan, Jinoyat kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra:

umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga tijorat maqsadlarida o'zboshimchalik bilan ulanish yoxud elektr energiyasini, tabiiy gazni, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblari, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish yo'li bilan talon-toroj qilish o'g'rilik deb belgilandi hamda mazkur huquqbuzarlik uchun 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilishi mumkin.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra, ushbu huquqbuzarlikni oz miqdorda sodir etgan shaxslarga quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

BHMning 10 baravaridan 20 baravarigacha (3 mln so'mdan 6 mln so'mgacha) miqdorda jarima yoki 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olish.

M. Qodiraliyev - Rishton tuman adliya bo'limi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-29 18:51:27